

**UZUN TUMAMI QISHLOQ XO'JALIK TARMOQLARINING
RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI VA UNDAGI O'SISH
KO'RSATKICHLARINING TAHLILIIY NATIJALARI.**

Tovarova Nilufar Ulug'bek qizi Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Uzun tumani qishloq xo'jaligi tarmoqlarining statistik ko'rsatkichlari o'rganilgan. Uzun tumani qishloq xo'jaligi tarmoqlarining 2010-2026-yillardagi rivojlanish tendensiyalari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. don ekinlari, sabzavot-poliz mahsulotlari, meva-sabzavot yetishtirish hajmi va chorvachilik faoliyati dinamikasi o'rganilib, tuman agrar sektorining iqtisodiy ahamiyti yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uzun tumani, qishloq xo'jaligi, paxtachilik, chorvachilik, bog'dorchilik, meva-sabzavot, statistika, tahlil.

**UZUN DISTRICT'S AGRICULTURAL SECTOR DEVELOPMENT
PROSPECTS AND ANALYTICAL RESULTS OF ITS GROWTH
INDICATORS**

Tovarova Nilufar Ulug'bek qizi - Student of Termez State University

Abstract: This article studies the statistical indicators of the agricultural sectors of the Uzun district of Surkhondaryo region. The development trends of the agricultural sectors of the Uzun district in 2010-2026 are analyzed based on statistical data. The volume of grain crops, vegetable and melon products, fruit and vegetable production, and the dynamics of livestock activities are studied, and the economic importance of the district's agricultural sector is highlighted.

Keywords: Uzun district, agriculture, cotton growing, livestock breeding, horticulture, fruits and vegetables, statistics, analysis.

2010–2026 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyati Uzun tumanida qishloq xo'jaligi tarmoqlari barqaror o'sish ko'rsatkichlarini namoyon etdi. 2026 yil ma'lumotlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hajmi 109,7% ga o'sib, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetishtirishda sezilarli natijalarga

erishildi. Yalpi hududiy mahsulotda 2025 yilda 109,1% ga o'sish qayd etilgan. Qishloq xo'jaligi sektori 2026 yil yanvar–martda 105,1% o'sish, Surxondaryo viloyatida esa 109,7% ga yetgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar 2025 yilda 120,6% ga oshgan, bu tarmoq modernizatsiyasi va texnologik yangilanishni ko'rsatadi.


Dehqonchilikda don ekinlari 2010–2025 yillar davomida g'alla, arpa va makkajo'xori ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib kelmoqda. Uzun tumanida 4231 gektar yerda g'alla ekiladi. Hosildorlik 2023-yilda 45-50s/ga bo'lsa 2025-yilda 52-53 s/ga yetdi. Ushbu 2 yil oralig'ida 6 % o'sish kuzatilgan. 2025 yilda umumiy don ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan. Tuman hududida 2010-2026-yillar davomida paxta ekiladigan maydonlar hajmi muntazam qisqarib borgan 2010-yilda 25-27 ming gektar atrofida bo'lgan ekin maydonlari 2026-yilga kelib 18-20 ming gektarga tushgan. Hosildorlikda ham pasayish kuzatilgan. 2010-yillarda hosildorlik yuqori bo'lib gektariga 28-30 sentner atrofida hosil olingan. 2020-yilga kelib esa hosildorlik 22-25 s/ga oralig'iga tushdi. 2026-holatiga hosildorlik 20-22 s/ga atrofida baholanmoqda. Bu pasayish asosan kvota tizimining bekor qilinishi, suv resurslari tanqisigi va fermerlarning boshqa ekinlarga o'tishi bilan izohlanadi.

Uzun tumanida sabzavot yetishtirish hajmi 2010–2026 yillar davomida sezilarli o'sdi: 2010-yillarda 5–6 ming gektar maydonda sabzavot ekilgan bo'lsa, 2026-yilga kelib bu ko'rsatkich 9–10 ming gektarga yetdi. Hosil hajmi esa 2010-yillarda 120–150 ming tonna atrofida bo'lgan bo'lsa, 2026-yilda 200 ming tonnadan oshdi. Eng ko'p yetishtiriladigan sabzavotlar — pomidor, bodring, karam, piyoz va sabzi. Hududlar kesimida Bobotog' hududida 2021–2023 yillarda 2,882 gektar yangi yer maydoni sabzavot, poliz va dukkakli ekinlarga ajratilgan. Joncheka va Oqostonada piyoz va sabzi yetishtirishda yetakchi. Telpakchinor va Fayzova issiqxona sabzavotlari (pomidor, bodring) yetishtirishda yetakchi Xondiza tog' etaklarida karam va sabzi ekinlari yetishtiriladi.

Tumanda meva yetishtirish hajmi barqaror o'sib brogan. 2010-yilda viloyat bo'yicha 95 ming tonna meva yetishtirilgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 180 ming tonnaga yetdi. Uzun tumani viloyatning subtropik hududi sifatida anor, uzum, limon va anjir yetishtirishda yetakchi bo'lib, 2010–2026 davrida yalpi hosil hajmi 85–90% ga oshgan. Asosiy meva turlari - anor, uzum, limon, anjir, bodom, pista. Uzun tumani viloyat yalpi hosilining 15–18% ini ta'minlaydi. 2010-yilda 45 sentner/ga bo'lgan hosildorlik 2022-yilda 95 sentner/ga ga yetgan.

2010–2026 davrida hosildorlik 110% ga oshgan. Uzun tumanida chorvachilik hajmi barqaror o'sib borgan. 2026-yil 1-aprel holatiga viloyat bo'yicha yirik shoxli qoramollar soni 1,064 ming bosh, qo'y va echkilar 2,676 ming bosh, yilqilar esa 45 ming boshga yetgan. Uzun tumani viloyatning chorvachilikda yetakchi hududlaridan biri bo'lib, ayniqsa qo'y va echki boqishda yuqori ulushga ega. Qoramol 2010-yilda Surxondaryo viloyatida 1,2 mln bosh mavjud bo'lib, Uzun tumanida ulushi taxminan 70–80 ming boshni tashkil etgan. Qo'y va echkilar 2010-yilda viloyat bo'yicha 2,5 mln bosh, Uzun tumanida 150 ming bosh atrofida. 2010-yilda kichik xo'jaliklarda 200 mingdan ortiq parranda mavjud edi. 2021–2026-yillarda ozuqa bazasi kengayib yaylovlar samarali foydalanila boshladi, yem-xashak ekinlari maydoni 20% ga oshdi.

Qoramol soni Uzun tumanida 2018-yilda 90 ming boshga yetdi. Qo'y-echki 2019-yilda 180 ming boshga yetdi. Parrandachilik 2020-yilda 300 ming boshdan oshdi. 2021–2026 yillar Prezident qarorlari (PQ-179, 2026-yil) asosida chorvachilikni modernizatsiya qilish boshlandi. Qoramol soni respublika bo'yicha 16,5 mln boshga yetkazilishi belgilandi.



Manba: Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi, www.surxonstat.uz

Uzun tumani ulushi esa 100 ming bosh. Qo'y va echkilar soni 30 mln bosh, Uzun tumani ulushi ~ 200 ming bosh. Parrandalar soni 141 mln bosh, Uzun tumani ulushi ~500 ming bosh. 2010–2026 yillar davomida Uzun tumanida baliqchilik va o'rmon xo'jaligi hajmi sezilarli o'sish ko'rsatdi, 2025-yilda umumiy hajm 2,400,9 mlrd so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 101,5 % bo'ldi. Bu ko'rsatkich Surxondaryo viloyati bo'yicha o'rtacha darajadan pastroq bo'lsa-da, tuman hududiy tarkibida barqaror rivojlanish kuzatildi. Surxondaryo viloyati bo'yicha baliqchilik hajmi, Uzun tumani ulushi kichik, ammo barqaror. Uzun tumani baliqchilik xo'jaliklari Qumqo'rg'on va Sherobod tumanlariga nisbatan kichik, ammo ichki iste'molni ta'minlashda ahamiyatli. O'rmon xo'jaligi 2010–2015-yillarda O'rmon maydonlari asosan tabiiy, hajm kichik bo'lgan. 2016–2020-yillarda O'rmon resurslarini ko'paytirish va ko'chat ekish dasturlari amalga oshirildi. 2021–2025-yilda Surxondaryo viloyatida o'rmon xo'jaligi hajmi 510,7 mlrd so'm, Uzun tumani ulushi viloyat bo'yicha o'rtacha darajada. Uzun tumani o'rmon xo'jaligi Denov va Sherobod tumanlariga nisbatan kichik, ammo ekologik muvozanatni saqlashda ahamiyatli. 2010–2015-yillar: Asosiy o'sish bosqichi, dehqonchilikda g'alla va sabzavot yetishtirish hajmi ortgan. 2016–2020-yillarda Chorvachilik va

meva-sabzavot yetishtirishda diversifikatsiya boshlangan. 2021–2026-yillarda Investitsiyalar va eksport hajmi oshib, Uzun tumani qishloq xo'jaligi tarmoqlari modernizatsiya qilindi. Rivojlanish istiqbollari dehqonchilikda tomchilatib sug'orish va agrotexnologiyalarni keng joriy etish hisoblanadi. Chorvachilik klasteri asosida mahalliy go'sht va sut ishlab chiqarishni ko'paytirish, baliqchilikni kengaytirish, sun'iy ko'llar va intensiv baliq yetishtirish texnologiyalarini joriy etish orqali dehqonchilik mahsulotlari meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlarini va baliq xo'jaligi mahsulotlarini xalqaro bozorga chiqarish mumkin.

Xulosa. Uzun tumani Surxondaryo viloyatining agrar salohiyati yuqori hududlaridan biri bo'lib, 2025-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 102,8–103,8 foiz o'sishni qayd etdi. Aholi sonining ortishi oziq-ovqatga bo'lgan talabni kuchaytirib, hosildorlikni oshirish va zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Agroklasterlar, qayta ishlash korxonalari, suv tejoychi texnologiyalar va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni rivojlantirish tumanning agrar salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-tom Toshkent. O'zbekiston. 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. "Qishloq xo'jaligi rivojlanish strategiyasi 2020–2030." Toshkent, 2020.
3. Xudoyberdiyev A. "Fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti va boshqaruvi". Toshkent: Fan, 2018.
4. FAO (Food and Agriculture Organization). Agricultural Development Reports. Rome, 2021.
5. Rasulov B. Agrotexnologiyalar va innovatsion yondashuvlar. Samarqand: Zarafshon, 2019.